

SO‘Z SHAYXINING MO‘JIZALARI

Nizomiddin MAHMUDOV¹

Filologiya fanlari doktori, professor

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori

So‘zni ham so‘ylatgan, ham o‘ylatgan va shuning barobarida ming bir ishva bilan hech bir iddaosiz o‘ynatgan, tilning tafakkur va taxayyul bobidagi imkoniyatlariga favqulodda ko‘lam va qamrov baxsh etib, uni betakror badiiyat deyiladigan arshi a’loga ko‘tarmoqday muntazam mashaqqatdan hamisha huzur va hayrat tuygan, butun hayotining mazmunini ana shu hayrat va huzurni boshqalar bilan bo‘lishmoq, baham ko‘rmoqdan iborat deb bilgan ijodkorning umri boqiydir. “Chunki hayrat va huzur, insoniyat paydo bo‘libdiki, dunyoning hamma mintaqalarida hamma zamonlarda yurakning yumushi, qalbning qa‘ridagi qadri baland to‘lqin va tiniqish sifatida namoyon bo‘ladi. Demakki, ayni shu hayrat va huzur o‘zining ijodkori uchun ham insonlar qalbidan joy hozirlaydi, bu joy esa minnatsiz, ammo minnatdor qalbning eng muhtasham va mahram nuqtasidir.

Yigirmanchi asr o‘zbek adabiyotining zabardast namoyandasi, she’riyat olamining, so‘z san’ati saltanatining pokdoman shayxi Maqsud Shayxzoda, hech shubhasiz, xalqimiz qalbining mahram nuqtalaridan joy olgan ana shunday ijodkorlardan biridir. Shayxzodani bunday rutbaga noil qilgan omillarning boshida, aytish mumkinki, uning so‘zga asl e’tiqodi va ehtiromi turadi. Ana shu e’tiqod va ehtirom bois u so‘zga shayxlik qiladi, so‘zni oydin maqsad sari yetaklaydi, so‘zlarning o‘zaro til topishishlari, bir-birlarini batamom anglashlari uchun yo‘l ko‘rsatadi, ittifoqiga puxta zamin hozirlaydi, so‘zlar olamidagi zohiriy va hatto botiniy intizomni faollashtiradi, shu tariqa, qisqa qilib aytganda, ma’nan va mantiqan “ko‘zi ochilgan” so‘zlar g‘aroyib mo‘jizalar yaratadi, hayratomuz karomatlar ko‘rsatadi. Til vasilasidagi bu mo‘jiza-yu karomatlarining oddiygina nomi esa chinakam shayxona she’rlardir.

So‘z san’atkori muayyan bir tilda dunyoni badiiy obrazlar orqali qayta gavdalantiradi, ammo dunyoni bunday badiiy qayta gavdalantirish barcha ijodkorlarda aynan bir xil, aynan bir yo‘sinda bo‘ladigan bo‘lsa, buning oddiy taqlidchilikdan farqi qolmaydi. Shuning uchun ham muayyan bir tilda ijod qiladigan ikki ijodkorning dunyoni ko‘rishi, eshitishi va badiiy idrok qilishida o‘ziga xos farq mavjud bo‘lishi lozimligi barkamol badiiyatning azaliy talabidir. Zotan, ana shu farq ijodkor mahorati,

¹ N.Mahmudovning to‘plamga kiritilgan maqolalari quyidagi manbadan olindi: N.Mahmudov. Тилимизнинг тилла сандиги. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 152 б.

uning til va uslubdagi ustaligi, o'ziga xosligi tarozisining shayini bo'lib keladi. Tabiiyki, dunyoni o'ziga xos ko'rish, eshitish va badiiy idrok etish, eng avvalo, badiiy tilda zuhur etadi. Shayxzoda she'riyati benazir so'z mo'jizalari sifatida buning to'liq va bo'liq shahodatidir.

Shayxzodaning "Shoir qalbi dunyoni tinglar" she'rida shunday misralar bor:

Shoir qalbin darchalaridan talay tovush kelib kiradi.

Tovushlarning kichik, ulug'i, tovushlarning hidi – bo'yi bor.

Tovushlarning sovuq, ilig'i, tovushlarning rangi-ro'yi bor.

Tovushlarning shirin-achchig'i, bordir hatto yumshoq, qattig'i.

Shoir rassom bo'lsaydi agar, chizar edi shundan lavhalar.

Bu misralarda shoir ko'rish mumkin bo'lmagan narsalarni ko'radi, eshitish mumkin bo'lmagan narsalarni eshitadi, ilg'aydi va ularning barini yaxlitligicha o'ziga xos tarzda badiiy idrok etadi. Natijada tilshunoslikda sinestetik metaforalar (bir sezgi a'zosi bilan bilinadigan narsa, belgi nomini boshqa sezgi a'zosi orqali bilinadigan narsa, belgi nomi bilan tutashtirish, ya'ni *tovushlarning kichigi, tovushlarning hidi, tovushlarning rangi, tovushlarning shirini, tovushlarning yumshog'i* kabi) deyiladigan ko'chimlar harakati o'laroq betakror so'z chaqinlari yuzaga keladi.

Shoir o'z she'rlarida bunday metaforalardan katta mahorat bilan va ko'p bor foydalanadi, ammo, ta'kidlash joizki, ularning birontasida ham originallikni unutmaydi, o'zini o'zi takrorlamaydi. Ayniqsa, shoirning rang bilan bog'liq ana shunday metaforalari alohida diqqatga sazovor (Umuman, shoirning badiiy tasvir zaxirasida rangning, demakki, rang bildiruvchi so'zlarning eng faol unsurlardan ekanligini ta'kidlash mumkin.). Masalan, "Ufqlar" she'rida o'qiymiz:

U naqadar zumrad ufqlar...

U yerdagi ko'k sohillarda

Firuzang rang ko'rfaz chayqalar.

Va havo rang nag'malarning moviy naqarotlari kuylanadi tillarda.

Parchadagi har bir misrada rang bildiruvchi so'z bor, ya'ni *zumrad, ko'k, firuzang rang, havo rang, moviy*, bu so'zlar umumiy bir yashil- moviy rangning turli nozik jilvalarini ifodalaydiki, shoir ularni jamlash orqali dunyoning turfa rangligi, pokizaligi, go'zalligining rasmini chizganday bo'ladi. Farosatli o'quvchi *havorang nag'malarning moviy naqarotlari* ifodasining moviyliigi goh quyushlab, goh suyushlab dolg'alanayotgan, chayqalayotgan dengiz yuzidagi betinim to'lqinlarning muntazam (naqarotday takror-takror) qatlanishi rasmi ekanligini tasavvur etar ekan, oddiy so'zlarning bunday sipo va inja to'lqinlari uning qalbiga ham hayrat shaklida ohista ko'chadi.

Shayxzodaning aksariyat she'rlarida tirik tabiatning nafasi, tinim bilmagan dunyo harakatining turli pardalardagi saslari muntazam sadolanib turadi, hali hanuz inson bolasi oxirigacha anglab yetmoqning uddasidan chiqolmagan tiriklik tilsimotining murakkab simfoniyasi goh jo'shqin, goh miskin va gohida majhul bir

ohanglarda eshitiladi. Bunday ta'sirli tasvirni yuzaga keltirmoq uchun shoir tilimizning boy bisotidan eng uyg'un birliklarni bitta-bittalab saylab-terib oladi. Tabiiyki, u ayni badiiy niyatining real ro'yobiga muvofiq tarzda ko'proq o'zagi tovushga yoki obrazga taqliddan iborat so'zlar (*shovullamoq, vovullamoq, yaltiramoq* kabi), shuningdek, ma'no tarkibida "tovush, ovoz" unsuri mavjud bo'lgan, ya'ni *gap, sado, ashula, nag'ma, tovush, tinglamoq* kabi "ovozli" so'zlarga murojaat qiladi. Shoirning "Tovushlar" she'ridan olingan quyidagi parchalarda bunday so'zlar yaratgan simfoniyaning tinglab, huzurlanmaslikning imkoni yo'q:

Sho'rtepaning alohida bir gashti bor kechasi...

Alaxusus avgust chog'i

Oy suzilib kularkan...

Undan ko'ra xastaga

Ko'roydin tunlar ma'gul.

Ko'rmaysan, lekin eshitasan olamni.

Kezmaysan, lekin sezasan olamni..

Razm solib tinglayman...

Har tovushning bor hikmati va o'z sababi...

Ana ko'ppak esnab-esnab uvullaydi...

Ana mashinaning o'lchovlik nafasi...

Balki jar yoqasidan

Havolandi ashula...

Ana tovush:

Sinchalaklar chiyillar,

Chigirtkalar charchamasdan chirillar...

Ana boshqa tovugilar bor hovuzda,

Vaqirlar qurbaqalar...

Qahqahalar yangrab ketar olisdan...

Vizillaydi endi yuvosh shabboda.

Tovushida uyqularning Ipak xiromonligi...

Faqat bu savolning aksi sadosi –

"Ki-im ke-raaaak..."

Borib qo'nar teraklarning shoxiga...

Sharillaydi suvlari shirin-shirin... '

Traktor tarillaydi dalada...

Tovushlar bor, demak, hayot bor...

Demak, biz hammamiz tirikmiz...

Ko'zlarni yumib, uyg'oq dunyoni Tinglamon, lozim!..

Shayxzoda insonni nafaqat jamiyatdan, balki tabiatdan, hattoki koinotdan ham ayro holda tasavvur etmaydi, aksincha, ularning barini yagona bir butunlik, bir-biriga qavm-qardosh sifatida tushunadi. Buning ifodasi uchun tesha tegmagan tashbehlar

yaratadi. Masalan, quyoshni “fazomizning raisi” (“Quyosh, oqshom va dengiz” she’ri), Oyni “Yerning singlisi”, “odamzodning xolasi”, Yerni “Oyning opasi” (“Oy bilan suhbat” she’ri) deb badiiy nomlarkan, shoirning mazkur tushunchalari go‘zal ifoda topadi. “Oy bilan suhbat” she’ridan olingan quyidagi parchada Oy va inson munosabatining tirikligi tasviri uchun tirishgan tilning tiniqligi, ayniqsa, shoirning o‘xshatishi va bu o‘xshatishdagi so‘zlarning holat tasviridagi boshqa so‘zlar bilan favqulodda mantiqiy-mazmuniy mutanosibli hayratlanarlidir:

Yoki o‘sha samovotda bo‘lib o‘roq misoli, balki quloq misoli – tinglar eding Yer opangning quvonchlarin va g‘ussalarin.

Oshiqlarni kuzatding bog‘ning xiyoboniga.

Quloq solding ularning pichirlab-pichirlab ichgan ont-paymoniga.

Oyning o‘roqqa o‘xshatilishi adabiyotimizda allaqachonlar urfga kirgan, shuning uchun u qanchalik nafis va go‘zal bo‘lmasin, an’anaviy o‘xshatish maqomini olib bo‘lgan. Oyning quloqqa o‘xshatilishi esa original, bevosita Shayxzoda nigohining mahsulidir. Ayni paytda ta’kidlash lozimki, nuktadon shoir bu o‘rinda quloqning yarim oyga shakliy o‘xshashligini ishga solayotgani yo‘q, balki shuning barobarida, eng muhimi, quloqning she’rdagi *tinglamoq, quloq solmoq, pichirlamoq, ont ichmoq*, kabi so‘zlar bilan mazmuniy aloqalarini qamrovli bir tarzda harakatga keltirmoqda, zotan, bu so‘zlarning bari tilshunoslikda bir mazmuniy maydonning uzvlari sanaladi. Badiiy uyg‘unlik, badiiy mantiqqa ko‘ra, Yerning quvonch va g‘ussalarini, oshiqlarning pichir-pichiri-yu ichgan ontlarini o‘roqqa o‘xshagan oy emas, balki faqat quloqqa o‘xshagan oygina eshitishi mumkin.

Shayxzodaning jonlantirish asosidagi metaforalari ham kutilmaganligi va ohorliligi, holat tasviri uchun favqulodda uyg‘unligi bilan alohida diqqatga sazovordir. Masalan, o‘sha “Tovushlar” she’rida:

Oy jilmayib chaqiradi chamanga,

Soy yo‘talib chaqirar anjumanga

tarzidagi go‘zal misralar bor. Albatta, oyning jilmayishi unchalik ham yangi tashbeh emasdir, ammo soyning yo‘talishi faqat Shayxzodaga xos original va o‘tkir, jonli va jozibali metaforadir.

Ma’lumki, bahor kelishi bilan tunlar qisqarmoqqa, kunlar esa uzaymoqqa boshlaydi. Tanti tabiatning tirikligini tarannum etmoqdan tolmagan Shayxzoda mazkur qonuniyatni ham shunchaki emas, balki tiniq tuyg‘u bilan, bir chimdim intim intiqlik epkini bilan, yosharishning erka avji-yu erkin mavji bilan tasvirlamoq uchun so‘zlarga shayxona yo‘l boshlaydi, ularning chinakam mo‘jiza ko‘rsatishlari uchun imkon yaratadi. Buning betakror namunasi mana budir:

Ana, tuproq tirildi va uyg‘ondi daraxtlar...

Kundan-kunga ulg‘ayayotgan kunduzlar kechalarning belini siqib, soatlardan, daqiqalardan lola rang ufqlarga ruxsat so‘raydi (“Bahor nashidasi” she’ri).

“Kundan kunga ulg‘ayayotgan kunduzlarning kechalar belini siqib, lolarang

ufqlarga etmoq uchun yugurik vaqtdan izn istab turishi” behad nozik holat bo‘lishi barobarida sarhadsiz mazmuniy-hissiy qamrovga ham sohib badiiy tasvir, sohir so‘z mo‘jizasidir.

Quyidagi misralarda ham kunduz, tun va tong obrazlari haqiqiy so‘z shayxining tarbiyasi bilan tiriklik suvidan bahramand bo‘lib, dilbar bir tasvirga kirgan:

Kunduzlar tunlarning sochin taramay,

O‘polmas tonglarning pushti rang labin (“Yillarning salomin yillarga eltib...” she’ri).

Mazkur she’rda:

Bu yil osmonga yetdi boshimiz,

Fazoda ucharkan vatandoshimiz,

misralari bor. Ta’kidlamoq joizki, shoir *boshi osmonga etmoq* iborasini juda ham ustalik bilan qo‘llagan, ya’ni bir paytning o‘zida mazkur iboraning ham asosiy ma’nosi (“hadsiz xursand bo‘lmoq”) namoyon bo‘lgan va ayni paytda bu iboraning to‘g‘ri ma’nosi ham reallashgan. Demakki, mazkur birlik to‘lig‘icha shoirning badiiy niyati ro‘yobi uchun xizmat qilgan.

Shayxzoda she’rlarida so‘zlarning g‘ayriodatiy birikmalari ham bot-bot ko‘zga tashlanadi, shoir bunday birikmalarni tuzar ekan, u til qonuniyatlariga nopisandlik yoki zo‘rlilik qilmaydi. Hassos so‘zchi sifatida u tilning botinida, tub qatlamlarida yashiringan so‘z qo‘shilishi imkoniyatlarini badiiy niyatiga muvofiq tarzda ishga soladi. Buning natijasida kutilmagan so‘z qo‘shilmalari yuzaga keladi, ular she’rxon diqqatini o‘ziga jalb qiladi va uni o‘ylashga chorlaydi, alal-oqibat o‘quvchi bu qo‘shilmalarda pinhon bo‘lgan ma’no injaliklarini inkishof etadi. Masalan, «Binafsha» she’rida oshiqning tuyg‘ular taloshidan tilining kalimaga kelmasligini tasvirlar ekan, mana bunday go‘zal misralar tuzadi:

Bu balki go‘llikdir, agarda bilmasang,

Bu soqov g‘azaldir, sukutni anglasang.

Aytish mumkinki, *soqov g‘azal* g‘ayriodatiy birikmasi betakror badiiyat bilan yukungan. Shoir she’rlaridagi yana *chol asr, xumpar qush, tanbal daqiqa, shumshuk haykal, she’rga shinel kiydirmoq, yo‘lsiz yo‘l* kabi ko‘plab ana shunday badiiy o‘tkir birikmalarni eslash mumkin.

Shayxzodaning tildagi mavjud qonuniyatlarni suiiste’mol qilmagan, balki teran his etgan holda yangi so‘zlar yasashi ham ibratlidir. Shoir yasagan yangi so‘zlar (tilshunoslikda “muallif neologizmlari” deb yuritiladi) tasvir aniqligi, narsa-hodisa yoki belgining muayyan jihatlarining qabariq ta’kidi, umuman, poetik maqsad uchun to‘lasicha xizmat qiladi. Masalan, “Oy bilan suhbat” she’rida *tundalik* so‘zi bor:

U choqda o‘qiyimiz biz lirik daftaring, kundalik emas, tundalik daftaring.

Ko‘rinib turganiday, shoir kundalik so‘zining qolipi asosida tundalik so‘zini yasagan, bu yangi so‘z “Oyning tundagi faoliyatini qayd etuvchi daftar” ma’nosini bemalol ifoda etadiki, bu ayni o‘rindagi badiiy tasvir aniqligi uchun favqulodda

muvofiqdir.

Mana bu misralarda ham *-boz* qo'shimchasi bilan shoir yasagan so'zlar betakror badiiyatga egadir:

Balki, ba'zi "nafosatbozlar"

Tayyoriga ayyor tannoqlar... ("Paxta manzumi" she'ri)

Men-chi, oddiy bofandaman, to'qiyman ipak-shohi!

Aytganimdek, samarqandlik ko'p qadimdan yulduzboz ("Xato" she'ri).

Shoir tomonidan mahorat bilan yasalgan bunday yangi birliklarga ko'plab misollar keltirish mumkin: *yulduzboz, cho'liston, jangboz, nafosatboz, xilvatiy, joyparastlik, oybachcha, qishboy, lahzadosh, fazoshumul, parvozkor, tinim kuni* (dam olish kuni), *serkadar, jangiy, shodmijoz, g'ayratmand, damsoz, salomobod* kabi.

So'zga buyuk e'tiqod va ehtirom bilan qaragan, so'zning zalvori va qudratli zarbini tugal tasavvur qilgan, uning bitmas-tuganmas sir-u sinoat manbai ekanligiga tamoman imon keltirgan Shayxzoda qaysi mavzuni qalamga olmasin, so'zga zargarona munosabatda bo'lgan, uning she'rlarida chinakam badiiy yuksiz, paxtavon so'zlar yo'q. Shayxzoda she'riyatini yaxlitligicha so'zdan benazir, mo'jizavor badiiy-hissiy chaqinlar yaratishning betakror namunalari deyish mumkin. Uning so'z shamoyilidagi karomatlari o'zbek adabiyotidagi betakror mo'jizalar sifatida she'riyat muhoblari qalbiga hamisha hayrat olib kiraveradi, shuning uchun ham uning umri ming yillik tilimizning umriday boqiydir.